

MAXFIYLIK SIYOSATI

«KFC» mobil ilovasi va «KFC Club» sodiqlik dasturi uchun

«27» avgust 2026-yildagi tahriri

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Maxfiylik siyosati (keyingi o‘rinlarda – «Siyosat») «KFC» mobil ilovasidan foydalanuvchi hamda «KFC Club» sodiqlik dasturida ishtirok etuvchi jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlash va himoya qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Shaxsga doir ma’lumotlar operatori O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 21-uy manzilida ro‘yxatdan o‘tgan «INTERNATIONAL FOOD CHAIN» MChJ hisoblanadi (keyingi o‘rinlarda – «Operator»).

1.3. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.4. Mobil ilovadan foydalanish orqali Foydalanuvchi mazkur Siyosat bilan tanishganligini tasdiqlaydi. Shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik Foydalanuvchi tomonidan alohida, ro‘yxatdan o‘tish paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatni amalga oshirish orqali beriladi.

2. BIZ QANDAY MA’LUMOTLARNI YIG‘AMIZ

2.1. Operator shaxsga doir ma’lumotlarning quyidagi toifalarini qayta ishlaydi:

Kategoriya	Ma’lumotlar tarkibi	Asos
Identifikatsiyalovchi	Mobil telefon raqami, ism	Foydalanuvchining roziligi
Hisobga oid	Ro‘yxatdan o‘tilgan sana, hisob identifikatori, bonuslar balansi, bonuslar hisoblanishi tarixi va echib olinishi	Shartnomaning bajarilishi
Tranzaksiyaga oid	Buyurtmalar tarixi, buyurtma tarkibi, restoran, buyurtma kanali, sana va vaqt	Shartnomaning bajarilishi
Aloqa ma’lumotlari (ixtiyoriy)	Yetkazib berish manzili, elektron pochta manzili, tug‘ilgan sana	Foydalanuvchining roziligi
Texnik	Qurilma modeli, operatsion tizim versiyasi, qurilma identifikatori, ilova versiyasi, IP-manzil	Ilovaning ishlashini ta’minlash
Geolokatsiya (ixtiyoriy)	Qurilmaning joylashuvi	Ilovada berilgan alohida rozilik

2.2. Operator shaxsga doir ma’lumotlarning maxsus toifalarini (sog‘liq holati, irqiy va milliy mansublik, siyosiy va diniy e’tiqodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar) qayta ishlaymaydi.

2.3. Operator 14 yoshga to‘lmagan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini yig‘maydi. Sodiqlik dasturida ro‘yxatdan o‘tish 18 yoshga to‘lgan shaxslar uchun mavjud.

3. QAYTA ISHLASH MAQSADLARI

3.1. Shaxsga doir ma’lumotlar faqat quyidagi maqsadlarda qayta ishlanadi:

- Foydalanuvchining hisob qaydnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish;
- sodiqlik dasturi doirasida ballarni hisoblash, hisobga olish va yechib olish;
- buyurtmalarni qabul qilish, qayta ishlash va bajarish, shu jumladan yetkazib berish;
- buyurtma holati va bonus balansi to‘g‘risida xabardor qilish;
- Foydalanuvchining murojaatlari va da’volarini ko‘rib chiqish;

- shaxsi aniqlanmaydigan tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- reklama va marketing xabarlarini yuborish – faqat Foydalanuvchining alohida roziligi mavjud bo'lgan taqdirda;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish.

4. SAQLASH MUDDATLARI

4.1. Shaxsga doir ma'lumotlar Foydalanuvchining sodiqlik dasturida ishtirok etish muddati davomida, hamda ishtirok etish to'xtatilgan yoki qayta ishlash maqsadlariga erishilgan paytdan boshlab 1 (bir) yil davomida saqlanadi.

4.2. Soliq va buxgalteriya qonunchiligi talablariga muvofiq saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan muddatlar davomida saqlanadi.

4.3. Saqlash muddati tugaganidan so'ng shaxsga doir ma'lumotlar yo'q qilinishi yoki shaxsi aniqlanmaydigan holatga keltirilishi lozim.

5. UCHINCHI SHAXSLARGA BERISH

5.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hajmdagina quyidagi uchinchi shaxslar toifalariga berishga haqli:

Qabul qiluvchi toifasi	Beriladigan ma'lumotlar	Maqsad
Sodiqlik platformasi operatori	Identifikator, ballar balansi, tranzaksiyalar tarixi	Dasturni texnik jihatdan ta'minlash
Yetkazib berish xizmatlari	Ism, telefon raqami, yetkazib berish manzili	Buyurtmani bajarish
To'lov tashkilotlari	To'lov operatsiyasi ma'lumotlari	Hisob-kitoblarni amalga oshirish
Aloqa operatorlari	Telefon raqami, xabar matni	Bildirishnomalarni yuborish
Davlat organlari	Qonuniy talabga muvofiq	Qonunchilik talablarini bajarish

5.2. Shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berish Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni nazarda tutuvchi shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

5.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish faqat Foydalanuvchining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

6. FOYDALANUVCHINING HUQUQLARI

6.1. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- o'zining shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash to'g'risida ma'lumot olish;
- o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga aniqlik kiritishni, ularni bloklashni yoki yo'q qilishni talab qilish;
- shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini chaqirib olish;
- istalgan vaqtda reklama xabarlarini olishdan voz kechish;
- Operatorning harakatlari ustidan vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilish.

6.2. Rozilikni chaqirib olish va boshqa murojaatlar marketing@ifch.uz elektron pochta manziliga yoki Operator manziliga yozma shaklda yuboriladi.

6.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga berilgan rozilikni chaqirib olish sodiqlik dasturidagi ishtirokni to'xtatishga yoki to'plangan ballarni bekor qilishga olib kelmaydi.

6.4. Murojaatlar kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida ko'rib chiqiladi.

7. MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH

7.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy foydalanish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash va boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.

7.2. Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish huquqi Operator xodimlariga faqat mehnat majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda taqdim etiladi.

7.3. Ilova va Operator serverlari o'rtasida ma'lumotlarni uzatish himoyalangan protokollar orqali amalga oshiriladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Operator mazkur Siyosatga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Siyosatning amaldagi tahriri mobil ilovada va rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi.

8.2. Jiddiy o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, Foydalanuvchilar o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 14 (o'n to'rt) kalendar kuni oldin xabardor qilinadi.

8.3. Operatorning aloqa ma'lumotlari: «INTERNATIONAL FOOD CHAIN» MChJ, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 21-uy, tel.: +998 78 129 70 00; elektron pochta: marketing@ifch.uz.